



O'ZBEK XALQ LATIFALARINING O'RGANILISHI VA O'QITILISHI

Eshtursunova Sug'diyona Akram qizi

eshtursunovasugdiyona16@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227444>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 10- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 16- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

Xalq og'zaki ijodi, latifa, Nasriddin afandi, metod, o'qitish, yumor, satira, Skarabey.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri xalq latifalarining mazmun mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilishi va o'qitilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Xalq og'zaki ijodi ma'lum bir xalqning urf-odatlarini va madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Xalqning turmush tarzi, xarakteri, umuman olganda, hayotini o'ziga xos tarzda ochib beruvchi folklor janrlaridan biri latifadir. Latifalar xalq og'zaki ijodi namunalari namunalarining nasrda yaratiladigan eng kichik ommaviy turi hisoblanadi. Latifa yumoristik xarakterga ega bo'lib, tinglovchini kulgi olamiga olib kiradi. Latifalar xalq ommasida juda keng tarqalgan. Latifalar hajm va mazmun jihatidan qisqa va lo'nda bo'ladi. Uning vujudga kelishi o'zaro jamiyat bilan bog'liq. Chunki latifalarda bevosita xalq hayotidagi turli xil voqea-hodisalar, salbiy illatlar, insonlar xarakteridagi qusurlar kinoya va so'z o'yinlari vositasida kulgili tarzda yoritiladi

"Latifa" termini arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib, nozik fikrlamoq, sharaflanoq kabi ma'nolarni anglatadi. Latifa biror-bir shaxsni, voqeani ibratli qilib tasvirlashdan kelib chiqqan. Avval latifalarda yumor ustuvorlik qilmagan, asosiy o'ringa chiqmagan. Oddiy hikoya tarzida bo'lgan. Latifa janrining ilk namunalari yaratilishi qadim davrlarga borib taqaladi. Folklorshunos olimlar turkiy xalqlarga tegishli latifalarning ayrimlari IX - XI asrlarda yaratilganligini qayd etib o'tishgan. Qadim zamonlardagi podshohlar, hokimlar qiziqarli voqealarni kulgili tarzda ijro etadigan odamlarni o'z saroylariga taklif qilganlar va ularga mahsus e'tibor qaratganlar.

Qadim zamonlarda davr allomalaridan birini yoqtirib qolgan (ixlos qo'ygan) podsho o'z imoratining qarshisiga olim uchun bolaxonali uy qurib beradi. Alloma dono va ilimli odam ekan. Ammo uning tashqi qiyofasi juda xunuk ekan. Kunlardan bir kun podsho tong pallasida o'z tarafida to'yib nafas olayotsa, qarshidagi bolaxonadan olim qiyofasi ko'rinibdi. Shunda podsho uning xunukligiga urg'u berib: Mavlono, ko'chaning narigi betida bir eshak turibdimi? - debdi. Alloma shu zahoti hech ikkilanmay:

- Yo'q, taqsir, men bu tomonga katta ko'zgu oyna qo'ydirganman,- degan ekan. [3, 57]. Ushbu latifada xalqimizning naqadar dono, so'zga chechan, hozirjavob bo'lganligi anglashilib turibdi. Tarixda bunday latifanamo hodisalar ko'p ro'y bergan. Nasriddin afandi latifalarini

eshitganda insonda beixtiyor kulgi paydo bo'ladi. Afandi latifalari sodda va tushinilishi oson. Latifa sujetining asosini zulm va zo'rlik, adolatsizlik, pastkashlik, nodonlik singari illatlarni inkor etish, soddalik va go'llik kabi xislatlar ustidan kulish kabi g'oyalarni ifodalovchi voqea-hodisalar tashkil etadi.

Nasriddin afandi ko'chada ketayotib, kichkina bir ko'zgu - oyna topib olibdi. Uni qo'liga olar ekan, o'z aksini ko'rgani zahoti: "E, kechirasiz, oyna siznikimidi?" - deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: "Kerak bo'lmasa, ayta qolmaysizmi? O'zim olar edim-ku",- degan ekan.[4, 216].

Latifalarni o'qitish, o'quvchilarga qanday qilib tez va oson o'rgatish, singdirishda turli xil metodlardan foydalanish ko'zda tutilgan maqsadga erishishni osonlashtiradi. Masalan, latifalarni o'quvchilarga yetkazish davomida **"Skarabey"**, **"Aqliy hujum"** kabi interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. **"Skarabey"** - "qo'ng'iz" - har tomondan kovlab chiquvchi ma'nosini anglatadi. U o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy fikrlash, xotiralarining rivojlanishiga imkon yaratadi. O'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu metod o'quvchilarga o'rganayotgan mavzusi haqida tasavvur va tushunchalarini aniqlashga yordam beradi

"Skarabey" texnologiyasidan yakka holda, kichik guruhlarda va jamoa bo'lib ishlashda foydalanish mumkin. **"Skarabey"** texnologiyasidan o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan egallashning turli bosqichlaridan, ya'ni:

- boshida - o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida ("Aqliy hujum") uslubi;
- mavzuni o'rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash;
- oxirida - olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida qo'llash mumkin.

Misol uchun, o'quvchilarga biron bir latifa o'qituvchi tomonidan og'zaki tarzda bayon qilinadi yoki tarqatma material sifatida tarqatiladi. So'ng latifaning g'oyasini ochish uchun har bir o'quvchidan o'z fikr-mulohazalari, tasavvurlari so'raladi. Oxirida o'quvchilar undan chiqargan xulosalarini aytishadi va fikrlar umumlashtiriladi. Shu tariqa bu metod orqali mavzu mohiyati ochiladi, mustahkamlanadi, yakuniy xulosa chiqariladi.

"Aqliy hujum" metodi. Ushbu interfaol metoddan foydalanish latifa janrini o'rgatish va o'qitish jarayonida mavzu mohiyatini ochishga yordam beradi va dars samaradorligini oshiradi. "Aqliy hujum" metodi biror mavzu yuzasidan muammoni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish yoki ijodiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan usuldir. Dars jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

- Savol beriladi. Bunda o'qituvchi mavzu yuzasidan muammoli savol beradi.
- Fikr va g'oyalar bildiriladi. O'quvchilar o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirishadi.
- Tanqidga yo'l qo'yilmaydi. Fikrlar bildirilayotganda tanqid qilish taqiqlanadi.
- Fikr va g'oyalar jamlanadi.
- Aniq va to'g'ri g'oyalar tanlab olinadi.

Mazkur metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi, erkin fikr almashish imkonini beruvchi samarali metodlardan biridir. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat yangi g'oyalar ilgari suradi, balki jamoaviy ishlash, muammolarga turlicha yondashish va muqobil yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. To'g'ri tashkil qilingan aqliy hujum darsni jonlantiradi, o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi va olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Afandi bir yalqovdan so'radi:

- Holing qalay?

- Topsam - yeyman, topmasam sabr-qanoat qilaman, - javob berdi yalqov.

- Uday bo'lsa, xuddi bizning shahar itlariga o'xshar ekansan, - dedi afandi". [2, 221]

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, latifalar xalq og'zaki ijodidagi kulgi uyg'otuvchi, hajman kichik bo'lgan betakror durdonalardir. Ushbu latifalarning yuzaga kelishi o'zbek xalqining naqadar donoligi, hozirjavobligidan dalolat beradi. Latifa janrini o'rgatish va o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish dars sifatini oshiradi. Tafakkur qilish, tanqidiy fikrlash va o'z fikrlarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R., Yo'ldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent. 2013.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent: "O'qituvchi". 1990.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 2001.
4. Mirzayev T., Turdimov M., Eshonqulov J., Tilalov A. O'zbek folklori. - Toshkent: 2020.

